

# Yashil

# IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2  
0  
2  
4



No 5

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# Yashil **IQTISODIYOT** va **TARAQQIYOT**

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Bosh muharrir:**  
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

**Bosh muharrir o'rinbosari:**  
Karimov Norboy G'aniyevich

*Elektron nashr. 412 sahifa.  
E'lon qilishga 2024-yil 30-mayda ruxsat etildi.*

**Muharrir:**  
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

## **Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati  
**Axmedov Sayfullo Normatovich** i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori  
**Abduraxmanova Gulnora Kalendarovna**, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, i.f.d., TMI professori  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, i.f.n., TDIU professori  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori  
**Aliyev Bekdavlal Aliyevich**, f.f.d., TDIU professori  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, i.f.d. TDIU professori  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, t.f.d., profesor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, i.f.d., TDIU professori  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, i.f.d., TDIU professori  
**Musyeva Shoira Azimovna**, SamDu IS instituti professori  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, i. f. n., TDAU dotsenti  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
**Rustamov Ilhomiddin**, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti  
**Sevil Piriyeva Karaman**, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti  
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi  
**Utayev Uktam Choriyevich**, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
**Ochilov Farxod**, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, TDIU katta o'qituvchisi

## **Ekspertlar kengashi:**

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, i.f.d, TDIU dotsenti  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, i.f.f.d, TDIU dotsenti  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, i.f.d., TMI dotsenti  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.



# MUNDARIJA

Uy-joy qurilishi madaniyati, uning o'ziga xos xususiyatlari va tamoyillari.....	10
<b>Davletov Islambek Xalikovich, Zikrullayev Valixon G'aybulla o'g'li</b>	
Hududlar investitsiya muhitini oshirish muammolari.....	16
<b>Akbarov Bekmurod Miryakubovich</b>	
Qoraqalpog'iston Respublikasi ellikqal'a tumanida turizm klasterini joriy qilish mexanizmi.....	22
<b>Norchayev Asatullo Norbo'tayevich</b>	
Small Business and Private Entrepreneurship is the Priority Direction of Our Country's Economy.....	28
<b>Tulagan Tukhtaraliev, G'aniev Muhammadjon Xalilovich</b>	
Resurs soliqlarini soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish.....	31
<b>Tursunova Zulayxo Abdujobir qizi</b>	
O'zbekistonda muqobil energiya manbalaridan foydalanish elektrotexnika sanoati rivojlanishining istiqboli sifatida.....	34
<b>Uraimjonov Azizbek Raxmonjon o'g'li</b>	
Oliy ta'limning raqobatbardoshligini ta'minlashda ta'lim sifatining mohiyati va asosiy tamoyillari (O'zbekiston misolida).....	40
<b>Egamov Sevinchbek Maxsud o'g'li</b>	
Financial Mechanisms of Supporting Textile Products Export.....	46
<b>Gaybullaeva Gulbaxor Maxmudovna, Yakubova Ugiloy Mamasoliyevna</b>	
O'zbekiston Respublikasida hududlarni mutanosib barqaror rivojlantirish masalalari va yechimlari.....	49
<b>Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich</b>	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar biznesini shakllantirish yo'llari.....	54
<b>Ibodullayeva Malohat Sirojiddin qizi</b>	
Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning xorijiy tajribasi.....	57
<b>Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich</b>	
Turizm sohasi rivojlanishining istiqbollari.....	61
<b>Ergashev Rahmatulla Xidirovich, Jabborova Zuhra Abdig'ani qizi</b>	
Jahonda kabel bozorini rivojlantirish xususiyatlari va tendensiyalari.....	68
<b>Uralov Olimjon Mahammadjonovich</b>	
Namangan viloyatida yoshlarning iqtisodiy faolligi ko'rsatkichlari dinamikasini tahlil qilish.....	72
<b>Mirzatov Baxtiyor Toxirovich</b>	
Turizm sohasiga malakali kadrlar tayyorlashdagi muammolar va ularning yechimlari borasida tavsiyalar.....	77
<b>A. I. Raxmatov</b>	
Трансформация внешнеторговых связей Республики Узбекистана.....	83
<b>Ахмедова (Жабборова) Нилуфар Икболжон кизи</b>	
Korxonalarda investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari va usullarining tahlili.....	88
<b>Kuziyeva Nargiza Ramazanovna, Xusanov Faxriddin Jamoliddin o'g'li</b>	
Turizmning mohiyati xususida nazariy yondoshuvlar va ularning tahlili.....	94
<b>R. I. Pardayev</b>	
Katta hajmga ega bo'lgan maxsus qurtxonalarda boqilayotgan ipak qurtlariga harorat va namlikni ta'siri.....	101
<b>Raxmanova Xurinisho Egamovna</b>	
Mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishda mahalliy soliqlar va soliqdan tashqari tushumlarning ahamiyati.....	104
<b>Rajjaboyeva Dildora Zakirovna</b>	
Banklarda stress-test asosida ESG-risklarni baholash.....	110
<b>Nilufar Sharipova</b>	
Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda banklarda ekologik va ijtimoiy risklarni baholash va boshqarish tizimini joriy etishning ahamiyati.....	114
<b>Karimov Shamsiddin Akram o'g'li</b>	



Qimmatli qog'ozlarni qiymatini baholash usullari va modellari.....	122
<b>Botirxo'ja Aziza Faxmuddin qizi</b>	
Sanoat ishlab chiqarishda diversifikatsiyaning nazariy asoslari.....	127
<b>Davronbek Sharibjonovich Raximov</b>	
Mamlakatimizda innovatsiyalarni moliyalashtirishning amaldagi holati tahlili.....	133
<b>Aminov Farrux Farxadovich</b>	
Raqamli iqtisodiyotda moliyaviy hisobot tahlilini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	138
<b>G. J. Jumayeva</b>	
Qurilish sohasida logistika tizimlariga zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlanganlarning amaliy jihatlari....	141
<b>Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich</b>	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitalini boshqarishdagi muammolar .....	146
<b>Nematova Shaxlo Egamberdiyevna</b>	
Aholi daromdlari va omonatlarini shakllantirishning nazariy asoslari.....	149
<b>Xakimov Zohid Norbo'tayevich</b>	
Tasvirlarga raqamli ishlov berish jarayonini intellektuallashtirish algoritmini yaratish.....	158
<b>Zoirov O'lmas Erkin o'g'li</b>	
Mintaqa iqtisodiyotida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish samaradorligini baholash .....	164
<b>Chilmatova Dilnoza Abdurahimovna</b>	
Возможности внедрения и развития исламских банковских продуктов в рынок Узбекистана.....	168
<b>Иноятова Камола Фуркатовна</b>	
Davlat xizmatchisi faoliyatida ijtimoiy javobgarlikning o'rni .....	172
<b>X. X. Ikramov</b>	
Korporativ boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari .....	176
<b>Abdug'aniyev Muhammadamin Abdug'affor o'g'li</b>	
Hududiy kambag'allik chegaralarini aniqlashning ahamiyati (Qashqadaryo viloyati misolida).....	182
<b>Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li, Alisher Yunusaliyevich Safarov</b>	
Kichik biznesga mahalliy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanishda franshizaning roli .....	189
<b>Rabimqulov Sherzod Murtozayevich</b>	
Tijorat banklarida marketing strategiyalaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari.....	193
<b>Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich</b>	
Davlat sherikchilik asosida maktab va maktabgacha ta'lim moliyashtirishligini o'ziga xos xususiyatligi.....	198
<b>Boltaboev Murodbek Aybekovich</b>	
Moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish davr talabi.....	203
<b>X. I. Boyev</b>	
Banklarda chakana kreditlash turlari va ularni raqamli transformatsiya qilishning zarurligi.....	207
<b>Axmedova Dilrabo Kurbondurdi qizi</b>	
Rasmiy ish bilan bandlik – aholining munosib turmush darajasini ta'minlash demak.....	216
<b>Farhod Bagibekovich Xalimbetov</b>	
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i uchun qo'llaniladigan soliq imtiyozlarining amaldagi holati va tahlili.....	220
<b>Valiyeva Sayyora Xushbaqovna</b>	
Автомобильная промышленности развитых стран: становление, развитие, пути совершенствования.....	227
<b>Назарова Раъно Рустамовна, Абдухамидова Мафтуна Турсуналт кизи</b>	
Влияние цифровизации на внешнеэкономическую деятельность .....	232
<b>Шермаматова Ирода Ойбековна, Тиллаев Хуршиджон Сулаймон ўгли</b>	
ИИ в банковском бизнесе: ключ к конкурентной привлекательности .....	238
<b>Фаттахова Муниса Абдухамитовна</b>	
Tijorat banklari kapitalining iqtisodiy mazmuni va uning tarkibi .....	243
<b>Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li</b>	



Особенности банковского кредитования и факторы препятствующие финансово-кредитной поддержке субъектов сферы туристических услуг .....	248
<b>Розоков Мухаммадазиз Мансурович</b>	
Factoring Operations in Banks.....	253
<b>Boykabilova Iroda, Davronova Dilnoza Damirovna</b>	
Moliyaviy sektordagi aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ strategiyasini shakllantirishda risklarni bartaraf etish.....	257
<b>Jaxongirov Rustam Jaxongirovich, Xo'jamurodov Asqarjon Jalolovich</b>	
O'zbekistonning jozibador investitsiya muhitini yaratishda huquqiy asoslarni yanada takomillashtirishning ilmiy va amaliy zaruriyati .....	264
<b>Oybek Elmuratov</b>	
Qurilish materiallarini ishlab chiqarish korxonalarining boshqarish tizimini takomillashtirish.....	268
<b>Uzakova Umida Ruzievna</b>	
Tashkent Economy – Locomotive of the Country's Economy .....	274
<b>Akramova Aziza Abduvohidovna, Maqsudov Bunyod Abdusamadovich</b>	
O'zbekiston Respublikasida ishbilarmonlik turizmining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish yo'llari.....	278
<b>Musayeva Shoirazimovna, Usmonova Dilfuza Ilhomovna</b>	
Mintaqalar iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashda investitsiyalardan samarali foydalanish mezonlari va ularni hisoblash usullari .....	284
<b>Norqobilov Nusrat Norsaitovich</b>	
Marketing strategiyasi: raqobatchilik sharoitida tadbirkorlik faoliyatini yuritishning rivojlantirilishi .....	288
<b>Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna, Matrizayeva Dilaram Yusubayevna</b>	
Mahalliy budjetlar mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlashning eng asosiy istiqbolli yo'nalishi .....	295
<b>S. Y. Ismoilova</b>	
Atrof-muhitga zararsiz, tabiiy tarkibli korroziya ingibitorlari turlarini tahlil qilish .....	300
<b>Qurbonova Furuza Solexovna</b>	
Oliy ta'lim muassasalarida xarajatlar smetalari ijrosi hisobini yuritish tartibi .....	306
<b>AbdulAziz Norqochqorov Ziyadullayevich</b>	
Tijorat banklarining investitsion faoliyati samaradorligi va uni rivojlantirish yo'llari .....	312
<b>Olimova Nodira Xamrakulovna</b>	
Baholangan majburiyatlar hisobini takomillashtirish.....	324
<b>Ochilov Farxodjon Shavkatjon o'g'li</b>	
Qurilish-pudrat tashkilotlarida auditorlik tekshiruvda faoliyat uzluksizligini baholash.....	331
<b>Tulovov Erkinjon To'liqin o'g'li</b>	
Основные направления развития инвестиционной деятельности предприятий.....	335
<b>Махкамова Надира Саидмуратовна</b>	
Milliy statistika axborot tizimlarining funksional jihatlari va o'ziga xos xususiyatlarining tahlili .....	340
<b>Otajonova Gulhayo Maqsud qizi</b>	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini boshqarish axborot tizimini modellashtirish .....	345
<b>Xudoyorov Laziz Niyozovich, Ergashova Nargiza Boboxonovna</b>	
Mamlakatimizda aksiz to'lanadigan tovarlarni soliqqa tortish usullari .....	351
<b>Alimardonov Muxammadi Ibragimovich, Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich</b>	
Iqtisodiy rivojlanish sharoitida investitsiya loyihalarini jalb qilgan mablag'lar orqali moliyalashtirishning zarurligi.....	357
<b>Amonova Dilafroz O'tkurovna</b>	
To'lov tashkilotlarini tashkil etishda xatarlarni boshqarish .....	362
<b>Axmedov Miraziz Alisherovich</b>	
Korxonada inson kapitalini rivojlantirish tizimi va konsepsiyasini takomillashtirish imkoniyatlari .....	367
<b>Hamrokulov M. O.</b>	



Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida kichik sanoat zonalarini faoliyatining zarurligi va iqtisodiy-huquqiy maqomi.....	375
<b>Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich</b>	
Bank tizimida marketing faoliyati orqali yangi innovatsion xizmatlarni joriy etishning zamonaviy holati.....	379
<b>Raxmatov Temur Sotiboldiyevich</b>	
Экономическая сущность инновационной деятельности в банковском секторе .....	388
<b>Шадиева Дилдора Хамидовна</b>	
Yengil sanoat taraqqiyotining xitoy tajribasi va undan o'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari .....	392
<b>Jumaniyazova Feruza Rajabovna</b>	
Tut parvonasi zararkunandasi biologik tarqalishi va zararini oldini olish choralari.....	402
<b>Oybek Toshmurovich Karimov</b>	
Ijtimoiy adolat va ayollar huquqlari: kasbiy kamsitish .....	406
<b>Iminova Nargizaxon Akramovna</b>	



# IJTIMOIIY ADOLAT VA AYOLLAR HUQUQLARI: KASBIY KAMSITISH

**Iminova Nargizaxon Akramovna**

I.f.n., Muhammad al-Xorazmiy nomidagi

Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti

“AKT sohasida iqtisodiyot” kafedrasini mudiri, dotsent

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ayollarning ijtimoiy adolat hamda kasbiy kamsitilishini qisqacha mazmuni yoritilgan bo'lib, aniqlangan muammolarning asosligi ta'minlangan. Bundan tashqari, yurtimizda mehnatga layoqatli aholi statistikasida ayollarning ulushi, ular faoliyat yuritayotgan kasb-hunarlarining solishtirma tahlili ko'rib chiqilgan bo'lib, mavjud muammolar o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** kasbiy kamsitish, modernizatsiya, huquqiy asoslar, rag'batlantirish tizimi, kasb-hunar, mobillik, gender tenglik, rivojlangan mamlakatlar.

**Abstract:** This article discusses issues of social justice and professional discrimination against women, as well as the validity of the identified problems. In addition, a comparative analysis of the share of women in the statistics of the working population of our country, the professions in which they work, and existing problems was studied.

**Key words:** professional discrimination, modernization, legal framework, incentive system, profession, mobility, gender equality, developed countries.

**Аннотация:** В данной статье рассмотрены вопросы социальной справедливости и профессиональной дискриминации женщин, а также обоснованность выявленных проблем. Кроме того, был изучен сравнительный анализ доли женщин в статистике трудоспособного населения нашей страны, профессий, в которых они работают, и существующих проблем.

**Ключевые слова:** профессиональная дискриминация, модернизация, правовая база, система стимулирования, профессия, мобильность, гендерное равенство, развитые страны.

## KIRISH

Taraqqiyotning hozirgi davrida insoniyatning rivojlanishi, ularning huquqlari, erkinliklari, ijtimoiy tenglik va jamiyat xavfsizligini ta'minlash borasidagi amalga oshirilayotgan ishlarda ayollar va erkaklarning jamiyat hayotining barcha jabhalaridagi tengligini amalga oshirish masalalari ustuvor vazifalarning biriga aylanmoqda. Xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rnini oshirish va ularning imkoniyatlarini kengaytirish, barqaror rivojlanishda nihoyatda muhim jarayonlardan biridir. Bugungi kunda ularga qarshi barcha turdagi kamsitishlarni yo'q qilish nafaqat inson huquqlarini himoya qilish nuqtai nazaridan muhim, balki boshqa sohalar rivojlanishiga ta'sir etuvchi kuchli omillardan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda ayollarning ijtimoiy-siyosiy roliga beriladigan imkoniyat va huquqiy qo'llab-quvvatlash, ularning zamonaviy yashash tarzida o'z o'rnini mustahkamlashi bilan bog'liq kasbiy faoliyatiga hukumat darajasida hayrihohlik bildirish, shuningdek turli sohalarda kichik biznesdan tortib yirik ishlab chiqarishga qadar bo'lgan faoliyatdahi mehnatlari va fidokora ishtiroklari uchun rag'batlantirishlarga alohida zamin yaratildi.

Bularga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-noyabrdagi PQ-4513-sonli "Reproduktiv yoshdagi ayollar, homiladorlar va bolalarga ko'rsatiladigan tibbiy yordam sifatini oshirish va ko'lamini yanada kengaytirish to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 637-sonli "Temir daftar" va "Ayollar daftariga" kiritilgan oilalarning farzandlari hamda "Yoshlar daftariga" kiritilgan yangi turmush qurgan yoshlarning yakka tartibdagi xonadonida qo'shimcha uy-joy qurish uchun garovsiz kredit ajratish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 8-avgustdagi 437-sonli "Oqila ayollar" harakati faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori <sup>[1]</sup> kabilarni misol qilishimiz mumkin. Mazkur chora-tadbirlarning ijtimoiy-iqtisodiy, ta'lim hamda tibbiy jihatdan ayollarning har tomonlama huquqiy kafolatlarga ega tarzda inobatga olinishini anglatadi. Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda O'zbekistonda tadbirkor ayollar rahbarligidagi kichik korxonalar va mikro-



firmalar soni 39 078 tani tashkil etgan. Bundan tashqari, yurtrimizda so'nggi yillarda ish bilan band bo'lmagan xotin-qizlarni tadbirkorlik va o'zini o'zi band qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunda ushbu mavzu doirasida mahalliy hamda xorijlik olimlar tomonidan turli yondashuvlar hamda amaliy jihatlari o'rganib chiqilgan.

G. Aminova o'z maqolasida qizlarning o'zi qiziqqan sohalariga o'qishga topshira olmayotganligi ham yaqqol ko'zga tashlanadi, misol uchun: fan, texnologiya, muhandislik va matematika yo'nalishlarini o'rniga STE-REOTIP "ayol" mutaxassisliklarni taminlash jamiyatda bosim bilan bog'liq ekanligini ta'kidlab o'tgan [2]. Izlanuvchi D. Hakimova jamiyatda xotin-qizlarni sha'ni, qadr-qimmatini kamsitilishi, huquqlari cheklanishini oldini olish, ular orasida huquqiy savodxonlikni rivojlantirish borasida tegishli ishlar amalga oshirilishi lozim ekanligini aytib o'tib, bu kabi muammolarning yechimini jamiyatni tashkil etilishining asosiy bo'g'ini hisoblangan oiladan boshlash kerakligini ta'kidlaydi [3].


Bu borada xorijiy olim doktor S. Svaminatxon maktablarda, kollejlarda, universitetlarda ilmiy darajaga ega bo'lgan juda ko'p muvaffaqiyatli ayollar mavjud bo'lsa-da, ammo kam sonli odamlar oiladagi roli tufayli ilmiy sohada jiddiy ishlashni davom ettirishda qiyinchilikka uchrayotganini [4] aytib o'tgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy abstraktsiya, tizimli tahlil, iqtisodiy-matematik modellashtirish, ekspert baholash, prognozlash va boshqa standart usullardan foydalanilgan.


## TAHLIL VA NATIJALAR

Ayollarning jamiyatimizdagi o'rni har tomonlama oshib, taraqqiyot sari xizmat qilishiga bildirilgan ishonchning chuqur ildiz otayotganiga qaramasdan tashqi immigratsiyaga intilish orqali xorijda mehnat qilish, oilaviy qadriyatlarining davomiyligini ajrashishlar sonining oshib ketayotgani bilan ildiz otishi, shu bilan bir qatorda, ilm-fan va ta'limda Hukumat tomonidan berilayotgan imtiyoz hamda sharoitga qaramasdan ta'lim olishning oilaviy munosabatlar uchun qurbonlik qilinishi singari holatlar afsuski uchrab turibdi. Qarorlar va ularning ijrosini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar, ularning ortidan ko'zlangan maqsad va vazifalar istiboliga bolta urmoqda.




1-rasm: O'zbekistonda 2014–2024-yillarda doimiy aholi tarkibida ayollar soni hamda aholi zichligi [5]

Yuqorida keltirilgan rasmni tahlil qiladigan bo'lsak, ayollarning 2014-yildan boshlab bugungi kunga qadar doimiy aholi sifatidagi ulushi o'rtasha 50 foizdan ko'p sanaladi. Aholi zichligining yil sayin ortib borishiga qaramasdan, undagi ayollarning soni 52,3 foizni tashkil etmoqda. Jumladan, ayollarning ish bilan bandligini ta'minlashga qo'yilayotgan oilaviy to'siqlar, o'zi uyda o'tirib turmush o'rtog'ining maoshiga va daromadiga egalik qilishdan qoniquvchi erkaklarning munosabati, shu bilan bir qatorda qonuniy jihatdan rasman qayd etilmagan nikohlar, jamiyatda yosh onalarning mobilligining rivojlanishi aloqa vositalariga o'ta qaram bo'lib borayotganligi tufayli kelib chiqayotgan muammolar yo'q emas.




2-rasm: O'zbekistonda 2014–2023-yillarda qayd etilgan ajralishlar soni, ming kishi [5]

Mamlakatimizda ajralishlar soning yil sayin oshib borishi natijasida bolalar orasida ruxiy va didaktik muammolarning oshib borishi yuzaga kelmoqda. Birgina 2014-yilning 2024-yilga nisbatan baholanishi 80 foizga oshgan ko'rsatkichni tashkil etmoqda. Bu juda yirik ko'rsatkich sanaladi, biroq uning nikohlarga nisbatini tadqiq qilish masalaga yanda oydinlik kiritadi, shunga ko'ra quyida nisbat sarhisobi qilindi:



3-rasm: O'zbekistonda 2014–2023-yillarda tuzilgan nikohlarning ajralishlar soniga nisbati [5]




4-rasm: Mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi soni (jami aholiga nisbatan ulushi), foizda



2014-yilda ajralishlar soni nikoh tuzishga qaraganda 4,7 barobar ko'p kishini tashkil etdi. BU ko'rsatkich 2015–2017-yillar davomida qisqargan bo'lishiga qaramasdan umumiy holatda o'sib bormoqda va bu jamiyat hamda uning kelajagi uchun salbiy holat hisoblanadi. 2021-yilga kelib ajralishlar soni tuzilgan nikohning umumiy soniga qaraganda 3,7 barobarini tashkil etib, 2020-yilga nisbatan keskin ortgan. 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 2014-yilga qaraganda 2 barobarga tushgan. Demak, shundan xulosa qilish mumkinki, amalga oshirilayotgan chora tadbirlar yanada izchilligini yanada oshirish lozim.

Mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi soni tahlil qilganda, 2014–2023-yillar kesimida ayollarning mehnatdagi layoqatligi barqaror teng yarimini egallagan. Shundan, iqtisodiy nafaol aholi sifatida 4,6–4,92 foiz atrofidagi ko'rsatkichlarni egallagan bo'lib, ularning asosiy ulushini talaba qizlar, nogironligi bo'lgan xotin-qizlar hamda nafaqadagi ayollarni tashkil etmoqda. Bu o'z navbatida, mavjud tarkibning 1/5 qismini egallab, uning mamlakatning ijtimoiy himoyalash tizimidagi o'zgarish komponentini kelib chiqish muammolarini tadqiq etish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun ayollarning eng ko'p egallagan va kam egallagan kasb sohaslarini tadqiq etish lozim. (5-rasm)



5-rasm: O'zbekistonda ayollar faoliyat yuritayotgan eng ko'p kasb-hunarlar

Ijtimoiy adolat va ayollar huquqlari yuzasidan kelib chiqadigan muammolarning aksariyati mazkur kasblarda kamsitish va ma'naviy jihatdan xissiy talofat yetkazish, ruhiyatini izdan chiqarish holatlariga duch kelish kuzatiladi. Bunda shuni inobatga olish joizki, kasb kasalligi bilan biz tomondan ta'kidlanayotgan muammolarning farqi rag'batlantirishsiz bo'lsada rag'batning noto'g'ri talqin etilishi aksariyat hollarda yuzaga kelishini orqali namoyon bo'ladi.

So'nggi yillarda mamlakatimizning tezkor sur'atlarda iqtisodiy o'zgarishlar bilan kelajak sari intilishi mobaynida ko'plab mamlakatlarning ilmiy-tadqiqot faoliyati uchun katta qiziqish bildirilishi natijasida xorijiy konsultatuv hamda tahliliy korxonalar tomonidan indeksial baholanishga jalb etildi. Biroq, ayollarning diskriminativ baholanishini aks ettiruvchi "Global Gender Gap Index (GGG)" (Gender farqning global indeksi) bo'yicha O'rta Osiyoning barcha mamlakatlarining ishtirokini ko'rish mumkin, biroq unda O'zbekiston qayd etilmagani mazkur indeks baholash orqali O'zbekistonda ayollarning ijtimoiy adolatga yuz tutishini ta'minlash chora-tadbirlarini jahon miqyosida uning hamkorligini olib borilishi orqali bajarilishi rejalashtirilishi lozim ekanligini ko'rsatmoqda.

Yuqorida keltirilgan kasblar asosan mamlakatimizning erkak va ayolning turmushdagi munosabatlariga ta'sirini inobatga olgan holda natijaviylikni ko'rsatgan bo'lib, mamlakatimizda eng kam uchraydigan kasblar milliy qadriyatlarimizni va oliaviy hotirjamlikni ta'minlash maqsadida quyidagilarni shakllantirdik:



6-rasm: O'zbekistonda ayollar tomonidan egallangan eng kam kasb-hunarlar



Mamlakatimizda bugungi kunga kelib yengil avtomobildan foydalanish darajasida ayollarning ishtiroki tobora ko'payib bormoqda. Shaxsiy avtomobilga ega bo'lgan holda uning xizmatidan foydalanish bugungi kunda hashamat emas, balki ehtiyojga aylangan sharoitda ayollarning maktab bolalariga shaxsiy avtomobillarida xizmat ko'rsatish ham ijtimoiy adolat jihatdan sustdir. Mamlakat aholisining turmushida ayollarning haydovchilik qilishga munosabati salbiy bo'lib, bu dastlabgi to'siq sanaladi. Yurt doirasida yaratilgan sharoitdan aholimizning erkaklari turmushi davomida ayollarning ish bilan bandligini ta'minlanishida huquqiy asoslar bor bo'lishiga qaramasdan ijtimoiy nafaol aholi sirasida hayot kechiradilar.

IT mutaxassislari tashabbuskor hamda uzoqni ko'rib ish tutadigan ishbilarmon oilalarni qiziqtirishi mumkin. IT mutaxassislari sifatida ayollarning ish bilan bandligini ta'minlash yuzasidan ko'plab karyera markazlari orqali taklif bilan chiqilishiga qaramasdan, mamlakatimizdagi qadriyatlarini ro'kach qiluvchi bahonal ostida ilgari surilmoqda.

Jarroh, sport ishtirokchilari ertayu-kech bilan bog'liq faoliyatni talab etgani, sug'urta hodimlarining aksariyati yo'l patrul hodimlari vakillari bilan ish ko'rishga to'g'ri kelishi, shuningdek harbiy va tartib saqlash organlari hodimlarining ayol kishi kasb egallashida erkak kishi aksariyat hollarda o'zini kamsitilgandek xis etgani bois cheklovlar ostida ayollarning kasbiy faolligini so'ndirmoqda.

Mehnat erkinligi – qadr-qimmat, xavfsizlik va adolat sharoitida tanlash – inson farovonligining ajralmas qismidir. Ayollarning bu huquqdan foydalanishini ta'minlashning o'zi muhim masaladir. Biroq, mamlakatimizda ayollarning kasb egallashida turmush o'rtog'ining g'ururini hamda milliy qadriyatlarimizning nomobillik xususiyatiga egaligi yuzasidan huquqiy madaniyat jihatdan ayollarga yon bosilmaydi. Bu jihatni bartaraf etish maqsadida mamlakatimizdagi bandlikka ko'maklashish markazida "Ayollar mehnati"ga doir kasblarni egallashga ixtisoslashtirilgan xizmatning joriy etilishi, shuningdek, unda turmush o'rtog'ining istaklarini mezonlashtirilishi inobatga olingan holda shaxsning ma'lumotnomasini inson resurslari bo'limidan o'tkazishga jo'natish xizmatini ham amalga oshirish tavsiya etiladi.

Ayollarning lavozimlarini oshirilishida ham "oila faktori"ga ko'ra egallanishiga to'sqinlik qilinishi holatlari ichki ijtimoiy adolatsizlik sanalsa, ayollarning diksriminatsiyaga tortilishi korxonalarida KPI ko'rsatkichlari asosida rag'batning berilmasligi sanaladi. O'zbekistondagi ko'plab sanoat korxonalarida uzluksiz ishlab chiqarish davomida ayollarning navbat almashinuvidagi tungi vaqtda mehnat faoliyati uchun ish haqini hisoblash koefitsienti doirasida olib borilmasligi xotin-qizlarning korxonaning tashkiliy-iqtisodiy faoliyatiga ishonchi so'nishiga olib keladi.

Ayolning shaxsiy xohish-istaklari uning haq to'lanadigan ish qidirishi va shug'ullanishi uchun asosiy omil hisoblanadi. Biroq, bu imtiyozga an'anaviy gender rollariga moslashish uchun ijtimoiy-iqtisodiy cheklovlar va bosim katta ta'sir ko'rsatadi. Biroq, biz shuni unutmashimiz joizki, gender va uning rollari va ayollarning ushbu rollarga mos kelishini kutish mintaqa, din va uy xo'jaligiga qarab farq qiladi. Moslashish uchun bosim o'tkazishning bir usuli - bu oilaviy sharoitning joriy holati sanaladi. Misol uchun, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda turmush o'rtog'i bo'lgan ayollar kamroq ish bilan ta'minlanadi yoki faol ravishda haq to'lanadigan ish qidiradi. Bu ko'pincha juftining daromadi yuqirligi natijasi bo'lishi mumkin. Bu esa ba'zi nikoh munosabatlarida "erkak boquvchi"ning ayolga nisbatan taziqini kuchaytirishiga olib kelmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarda buning teskarisi: mintaqadagi iqtisodiy zarurat barcha ayollarning oilaviy ahvoriga qaramay ishlashdan boshqa chora qoldirmaydi. Shu nuqta nazardan qaraganda, ayollarning kasbiy kamsitish va karyerasini davom ettirish bilan bog'liq muammolar nisbatan kam uchraydi.

Kasbiy kamsitilishi deganda, egallangan bilim sohasidan foydalanish davomida insoniy huquqlarining poymol bo'lishini anglatadi. O'zbekistonda 50 foizdan ortiq aholi ayollarni tashkil etsa, mehnat faoliyati davomida Davlat hamda nomdor mukofotlarga hujjatlar to'plamini taqdim etishda xotin-qizlarning ko'krak nishoni hamda davlat mukofotlariga topshirishlarini oshirish va mamlakat bo'ylab ommalashtirish ayollarning motivatsion qo'llab-quvvatlaganini ifodalaydi. Rag'batlantirishda ayollarning inobatga olinmasligi, so'zda bo'lib amalda bo'lmagan rag'batlantirish pullarini joriy etilishi nazorat qilish talab etiladi. Shuningdek, ayollarning lavozimlarini oshirishda korxonalar tashkilot rahbarlarining jiddiy qarashmasliklari ayollarning ruxiyatiga va madaniyatiga chegaraviy chiziq tortib qo'yadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Kasbiy kamsitilishi yuzasidan ayollarning aksariyati ma'naviy zo'ravonlikka tortiladilar. Bu esa o'z navbatida ayollarning mehnat faoliyatiga munosabatning salbiy ijtimoiylashuv natijasida ular tomonidan kutilgan mukofot pullalarining berilmasligi kasbiy kamsitilishining yaqqol ko'rinishi sanaladi. Bu asosan belgilangan ish soati vaqtlaridan ortiq ish faoliyatini olib borsalar, korxonaning iqtisodiy samaradorligidagi ulushi uchun mukofot pullari bilan rag'batlantirilmasligi – ishchi kuchining mehnat salohiyatini munosib baholanmasligini isbotlaydi. Shuningdek, korxonalarda mukofot pullarining gender bo'yicha diskriminatsiya qilinishi holatlari ham kuzatiladi,

bunda asosan korxonalarda ayollarning mukofot pullari berilmaydi. Buning sabablari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1. 2018-yilgi so'nggi tadqiqotlarga ko'ra, butun dunyo bo'ylab ayollar bandligining qariyb 60 foizi norasmiy ishga yollangan, past daromadli mamlakatlarda esa bu ko'rsatkich 90 foizdan ortiqni tashkil qiladi. Bu o'z navbatida mukofot pullariga qonunan da'vo etish imkoniyatini bera olmaydi.
2. 2022-yilda ayollar va erkaklar uchun global ishsizlik darajasi mos ravishda 5,7% va 5,8% ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2024-yilda nisbatan o'zgarishsiz qolishi prognoz qilinmoqda. 2022-yilda ayollar uchun ishsizlik darajasi erkaklar uchun 10,5 foizga nisbatan 15 foizni tashkil etdi, bu 115 million erkaklarga nisbatan qo'shimcha 153 million ayolning ish bilan ta'minlanmagan ehtiyojini anglatadi. Bu rag'batlantirish pullarini kutish, uning uchun intilish motivatsiyasini so'ndiradi.
3. Agar ayollarning to'lanmagan mehnati pul bilan baholangan bo'lsa, konservativ hisob-kitoblarga ko'ra, bu ba'zi mamlakatlarda YalMning 40 foizidan oshadi <sup>[6]</sup>.

Qonunlardagi gender farqlari ham iqtisodiy rivojlanayotgan, rivojlangan mamlakatlarda ham, shuningdek, barcha mintaqalardagi ayollarga ta'sir qiladi. Dunyo miqyosida 2,7 milliarddan ortiq ayollar qonuniy ravishda erkaklar bilan bir xil ish tanlash imkoniyatidan mahrum. 2023-yilda baholangan 190 mamlakatning uchdan biridan ko'prog'ida (69 ta davlat) ayollarning ishlash qarorini cheklovchi qonunlar mavjud, 43 ta davlatda esa ish joyida jinsiy zo'ravonlikka oid qonunlar yo'q <sup>[7]</sup>. Jinslar orasidagi ish haqi farqi 20 foizga baholanmoqda. Bu shuni anglatadiki, garchi bu raqamlar gender ish haqi farqining haqiqiy darajasini baholamasa-da, ayollar erkaklar ish haqining 80 foizini oladilar.

Ayollarning kasbiy kamsitilishi jihatdan ish beruvchilarga jarima, hamda ishlab chiqarish hajmi oshirgan ishchilarni munosib rag'batlantirish tizimini joriy etishimiz lozim. Bunda, ayollarning mehnat unumdorligini oshirish maqsadida ayollarning mukofot pullarini rag'bat sifatida berilishini ta'minlash kerak deb hisoblaymiz.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://lex.uz/docs/-6146271>
2. G. Aminova. Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ta'lim olish imkoniyatlari va yuzaga kelayotgan muammolar. <https://worldlyjournals.com/index.php/IJSR/article/view/1798/2506> ;
3. D. Hakimova. Xotin-qizlarning huquqiy ongi va madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy mexanizmlari. <file:///C:/Users/user/Downloads/4-maqola.pdf>
4. Bhattacharya P. Discrimination Against Women in Science Exists [Electronic resource] // The New Indian Express [Official website]. 13.01.2014. URL: <http://www.newindianexpress.com/cities/bangalore/%E2%80%98Discrimination-Against-Wom-Indian-Express> [Official website]. 13.01.2014. URL: <http://www.newindianexpress.com/cities/bangalore/%E2%80%98Discrimination-Against-Women-in-Science-Exists%E2%80%99/2014/01/13/article1997831.ece> (date of access: 10.08.2014).
5. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>
6. Международная организация труда (МОТ), Мировая занятость и социальные перспективы: тенденции 2023. Доступно по адресу: [https://www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/---dgreports/-inst/documents/publication/wcms\\_865332.pdf](https://www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/---dgreports/-inst/documents/publication/wcms_865332.pdf) . И Обзор МОТ по статистике труда № 12 (март 2023 г.). Доступно по адресу: [https://www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/---dgreports/-stat/documents/publication/wcms\\_870519.pdf](https://www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/---dgreports/-stat/documents/publication/wcms_870519.pdf).
7. World Bank, Women, Business and the Law 2023. (Washington, D.C., 2023). Available at: <https://wbl.worldbank.org/en/wbl>

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 5**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



#### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.